

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat  
va savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik  
jihattan tartibga solish agentligining  
“ 3 ” yul 2023 yildagi  
108k -con buyrug‘iga  
3-ilova

## **Komplaens va ichki audit bo‘limi to‘g‘risidagi NIZOM**

Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi PQ-5177-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 8 sentabrda 3319-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining buyrug‘iga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2022 yil 14 fevraldagi PQ-128-son qarori ijrosini ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 avgustdagi “Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi VMQ-416-sonli qaroriga asosan Komplaens va ichki audit bo‘limi maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari hamda ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

**1.** Komplaens va ichki audit bo‘limi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, Agentlik Bosh direktorining qarorlari va buyruqlari, shuningdek ushbu nizomga amal qiladi.

**2.** Komplaens va ichki audit bo‘limi Agentlik tizimida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash, oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish choralari ko‘rishga mas‘ul hisoblanadi.

**3.** Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**komplaens va ichki audit** — Agentlikda ichki audit faoliyatini amalga oshiruvchi hamda boshqa tarkibiy tuzilmalardan mustaqil tarkibiy bo‘linma;

**ichki audit faoliyati** — Agentlikda budget intizomini mustahkamlash, budget to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olish, budget tizimi budjetlari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan mustaqil faoliyat;

**ichki audit ob‘ekti** — ichki audit tadbiri amalga oshirilishi nazarda tutilgan tashkilot;

**ichki audit tadbiri** — ichki audit ob‘ektlarida ichki audit xizmati maqsadlariga erishishga qaratilgan ichki audit xizmati xodimi tomonidan amalga oshiriladigan jarayon;

**4.** Komplaens va ichki audit bo‘limining ichki audit yo‘nalishi bo‘yicha mas‘ul bosh mutaxassisi Agentlikda ichki audit faoliyatini amalga oshirishga mas‘ul hisoblanadi.

**5.** Komplaens va ichki audit bo‘limi Agentlik va uning tizim tashkilotlarining asosiy faoliyati natijalariga javobgar hisoblanmaydi.

6. Komplaens va ichki audit bo‘limining ichki audit yo‘nalishi bo‘yicha mas’ul bosh mutaxassisi tomonidan ichki audit maqsadlari va vazifalarini amalga oshirish uchun ichki audit ob’ektlarida, shu jumladan, fuqarolar ishtirokidagi audit tizimi orqali aniqlangan ob’ektlarda ichki audit tadbirlarini o‘tkazadi, natijalarini rasmiylashtiradi hamda taklif va tavsiyalar tayyorlaydi.

Ichki audit tadbirlari Agentlik bosh direktori tomonidan tasdiqlangan ichki audit yillik rejasi asosida o‘tkaziladi.

7. Ichki audit tadbirlari ichki auditning milliy standartlari va ichki audit tadbirlarini o‘tkazish qo‘llanmasi asosida o‘tkaziladi.

## **2-bob. Komplaens va ichki audit bo‘limini tashkil etish**

8. Komplaens va ichki audit bo‘limi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining (bundan buyon matnda “Agentlik” deb yuritiladi) mustaqil tarkibiy tarmog‘i hisoblanadi va bevosita Agentlik bosh direktoriga bo‘ysunadi.

9. Komplaens va ichki audit bo‘limi boshlig‘i agentlik tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan birgalikda o‘tkaziladigan ochiq tanlov asosida Agentlik bosh direktorining buyrug‘i bilan lavozimga tayinlanadi.

9.1 Komplaens va ichki audit bo‘limi boshlig‘ini lavozimidan ozod etish masalasi Agentlik bilan kelishiladi.

Bunda, Agentlik bosh direktori tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga Komplaens va ichki audit bo‘limi boshlig‘ini lavozimidan ozod etish haqidagi taqdimnomasi beriladi.

Ushbu taqdimnomada xodimni lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari ko‘rsatiladi. Taqdimnomaga xodimni lavozimidan ozod etish sabablari va motivlarini tasdiqlovchi hujjatlar (masalan, xodimning arizasi, ichki mehnat tartibi qoidalarini buzganligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar va boshqa shu kabi hujjatlar) ilova qilinadi.

9.2 O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan Komplaens va ichki audit bo‘limi boshlig‘ini lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari yetarli emas deb hisoblansa, shu jumladan, Komplaens va ichki audit bo‘limi boshlig‘i ta’qib qilinayotganligi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lsa, ushbu masalada Komplaens va ichki audit bo‘limi boshlig‘i bilan suhbat o‘tkazilishi mumkin.

9.3 Quyidagilar Komplaens va ichki audit bo‘limi boshlig‘ini lavozimidan ozod etishni kelishishga rad etish uchun asos bo‘ladi:

Komplaens va ichki audit bo‘limi boshlig‘ini lavozimidan ozod etish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

Nazorat tuzilmasi rahbarining zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashqari vazifalarni bajarmaganligi yoki o‘ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun ta’qib qilinganligi holati aniqlanganda.

9.4 Taqdim etilgan hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan uch ish kuni ichida ko‘rib chiqilib, Agentlikka Komplaens va ichki audit bo‘limi boshlig‘ini lavozimidan ozod etishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko‘rsatilgan xat taqdim etiladi.

10. Komplaens va ichki audit xodimiga quyidagi hollarda ichki audit tadbirlarida ishtirok etishga yoki ushbu tadbirlarni o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi:

ichki audit tadbirini o‘tkazish nazarda tutilgan ichki audit ob’ektida shaxsiy yoki mulkiy manfaatlari bo‘lsa;

ichki audit ob’ektida ishlagan davri shu ob’ektida o‘tkazilishi rejalashtirilgan ichki audit tadbirlari bilan qamrab olingan bo‘lsa;

manfaatlar to‘qnashuvi yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka sabab bo‘ladigan boshqa holatlar mavjud bo‘lsa.

### **3-bob. Bo‘limning asosiy maqsadi, vazifalari va funksiyalari**

#### **11. Komplaens va ichki audit bo‘limining asosiy maqsadi:**

Agentlik va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, Agentlik tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, tashkilot tizimida korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish hamda ichki audit yo‘nalishi bo‘yicha budjet intizomini mustahkamlash va budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlarini profilaktika qilish, budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini baholash, shuningdek, ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta‘minlashdan iborat.

#### **12. Quyidagilar Komplaens va ichki audit bo‘limining asosiy vazifalari hisoblanadi:**

##### ***12.1 Komplaens yo‘nalishi.***

Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish;  
Agentlik tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta‘minlash va nazorat qilish;

Agentlik tizim tashkilotlarining Komplaens nazorati bo‘limlari faoliyatini nazorat qilish hamda muvofiqlashtirish.

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish;

##### ***12.2 Ichki audit yo‘nalishi.***

budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tahlil qilish va baholash, budjet hisobining yuritilishi hamda moliya-xo‘jalik hisobotlarini shakllantirilishini o‘rganish orqali budjet intizomini mustahkamlash;

masofaviy auditni qo‘llagan holda, budjet mablag‘laridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish xavflarini aniqlash, minimallashtirish, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish orqali budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlari profilaktikasini amalga oshirish;

rivojlantirish dasturlarining samaradorligi natijalarini tahlil qilish va baholash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish orqali budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini oshirish;

#### **13. Komplaens va ichki audit bo‘limi o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:**

##### ***13.1 Komplaens yo‘nalishida.***

a) Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish sohasida:

Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Agentlik bosh direktoriga kiritadi;

Agentlik faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

Agentlik tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar loyihalarini Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazaridan baholaydi va xulosalar beradi;

Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga kiritib boradi.

b) Agentlikda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

Agentlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va Agentlikda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini yaratadi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali Agentlik va uning tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va Agentlik bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

Agentlik xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo'ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining faoliyat natijalarini tahlil qiladi va tahliliy materiallarni Agentlik xodimlariga yetkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarliligini nazorat qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Agentlikda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;

Agentlik bosh direktori talabiga ko'ra tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ulardagi korrupsiyaviy holat haqida Agentlik bosh direktoriga ma'lumot kiritib boradi;

v) Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish sohasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Agentlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi ISO 37001:2019 xalqaro standarti talablariga mosligini ta'minlaydi;

Agentlik xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

o'quv rejaga muvofiq tashkilotning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglarning o'tkazilishini hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qiladi;

Agentlik tizimi xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarida ishtirok etadi;

Agentlikning rasmiy veb-saytidagi «Antikorrupsiya» sahifasiga joylashtirilgan ma'lumotlarni yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Agentlik tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va Agentlikning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

Agentlik tizimidagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;

odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshiradi;

amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

Agentlik tizim tashkilotlaridagi Komplaens nazoratiga mas'ul bo'limlar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni tashkil etishga qaratilgan konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi;

g) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:

jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi.

Komplaens va ichki audit bo'limi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

### ***13.2 Ichki audit yo'nalishida.***

a) budjet to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tahlil qilish va baholash, budjet hisobining yuritilishi hamda moliyaviy hisobotlar shakllantirilishini o'rganish orqali budjet intizomini mustahkamlash bo'yicha:

budjet tizimi budjetlari mablag'lari hisobidan moliyalashtirish jarayonini, ya'ni xarajatlar smetasi va jamlanma xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi, shtatlar jadvali hamda ularga qo'shimcha hujjatlarni tuzish, tasdiqlash va ijro etish tartibi va jarayonlarini o'rganadi va baholaydi;

budjet tizimi budjetlari mablag'larining ularni olish (ulardan foydalanish) shartlariga muvofiq bo'lgan maqsadlarga yo'naltirilishini o'rganadi;

mehnatga haq to'lash bo'yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo'shimchalar va boshqa to'lovlar miqdorlariga rioya etgan holda, to'lovlar amalga oshirilishini tahlil qiladi;

budjetdan ajratiladigan mablag'lar normativlarga muvofiq xarajatlar smetasiga kiritilishini o'rganadi;

xodimlarning belgilab qo'yilgan cheklangan umumiy soniga, xodimlarning toifalari o'rtasidagi o'zaro nisbat normativlariga, namunaviy shtat normativlariga, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibiga, tarifkatsiya ro'yxatlarini tuzishning belgilangan tartibi va normativlariga rioya etilishini o'rganadi;

moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi, asoslanganligi, to'liqligi hamda to'g'ri shakllantirilganligini o'rganish orqali ular yuzasidan rahbariyatga ishonchli ma'lumotlar taqdim etadi;

asossiz debitor va kreditor qarzdorliklarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan mavjud debitor va kreditor qarzdorliklar holati va ularning kelib chiqish sabablari hamda manbalarini o'rganish

orqali barcha turdagi debitor va kreditor qarzdorliklarni qisqartirish va ularning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

aktivlardan foydalanish va ularning saqlanishini baholash orqali ularni doimiy butligi va ishga yaroqliligini o‘rganadi hamda ularning natijalari yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

aniqlangan budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlari statistikasini yuritadi va ular yuzasidan Agentlik bosh direktorini xabardor qilib boradi;

davlat xaridlarida qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini hamda xarid komissiyalari faoliyatini o‘rganadi;

xarid qilingan tovarlar maqsadga muvofiqligi, to‘g‘ri kirim qilinishi, ulardan maqsadli va samarali foydalanilishini o‘rganadi;

xo‘jalik shartnomalarini bajarmaganlik yoki tegishli darajada bajarmaganlik uchun taraflarning javobgarliklari bajarilishini o‘rganadi;

faoliyat va uni moliyaviy ta‘minlashni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etmaslik holatlari mavjudligi ehtimolini o‘rganadi;

budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida tushuntirish va tavsiyalar beradi;

ichki audit tadbiri natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan kiritilgan taklif va tavsiyalar bajarilishini nazorat qiladi;

davlat moliyaviy nazorat organlari hamda boshqa vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari bilan hamkorlik qiladi;

moliya-buxgalteriya va xo‘jalik xodimlari tarkibini mustahkamlash masalalari bo‘yicha tavsiyalar tayyorlaydi;

b) masofaviy auditni qo‘llagan holda, budjet mablag‘laridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish xavflarini aniqlash, minimallashtirish, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish orqali budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlari profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha:

masofaviy auditni keng ko‘lamda qo‘llash, zamonaviy axborot texnologiyalari va ma‘lumotlar bazasi vositasida ichki audit ob‘ektlari va yo‘nalishlarini aniqlash yo‘li bilan ichki audit tadbirlari samaradorligini oshiradi;

xavf tahlilini amalga oshirish orqali mablag‘lardan samarasiz foydalanish holatlarining oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan o‘tkazilgan moliyaviy nazorat va tashqi audit natijalari bo‘yicha aniqlangan budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlariga kelgusida yo‘l qo‘ymaslik va oldini olish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

maxsus axborot tizimlaridan foydalangan holda, tender (tanlov) savdolarining o‘tkazilishi va shartnomalar tuzilishini monitoring qiladi;

sohaga oid seminarlar, treninglar va boshqa shu kabi tadbirlarda ishtirok etadi va/yoki ularni tashkil qiladi;

davlat qarzi va grantlar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning natijadorligini o‘rganadi;

Agentlik vazifalarini bajarish uchun shakllantirilgan tarkibiy tuzilma va uning tarkibidagi lavozimlar, bo‘ysunuv va hisobdorlikni yaxshilash bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

Agentlikning takrorlanuvchi va samarasiz vazifa hamda funksiyalarini aniqlash va baholash orqali ularni optimallashtirish, davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritishni yo‘lga qo‘yish yoki to‘liq xususiy sektorga o‘tkazish bo‘yicha taklif va tavsiyalar beradi;

v) rivojlantirish dasturlarining samaradorligi natijalarini tahlil qilish va baholash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish orqali budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini oshirish bo‘yicha:

ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan obyektlarda amalga oshirilayotgan qurilish ishlarini monitoring qiladi;

Agentlikning vazifalarini bajarish uchun shakllantirilgan tarkibiy tuzilma va uning tarkibidagi lavozimlar, bo'ysunuv va hisobdorlikni yaxshilash bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

vazirlik va idoralarning takrorlanuvchi va samarasiz vazifa hamda funksiyalarini aniqlash va baholash orqali ularni optimallashtirish, davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritishni yo'lga qo'yish yoki to'liq xususiy sektorga o'tkazish bo'yicha taklif va tavsiyalar beradi;

mavjud moddiy, moliyaviy va inson resurslaridan samarali foydalangan holda yuqori natijadorlikka erishish, xususan, qo'shimcha faoliyatni tashkil etish orqali budjetdan tashqari jamg'armalarga daromadlarni shakllantirish va oshirish imkoniyatlari bo'yicha taklif kiritadi;

budjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish va ulardan foydalanish yuzasidan tahlillar o'tkazish orqali daromadlarni oshirish va mablag'lardan oqilona foydalanish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

**14. Komplaens va ichki audit bo'limiga va ularning xodimlariga ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalarning yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.**

#### **4-bob. Bo'limning huquq va majburiyatlari**

**15. Komplaens va ichki audit bo'limining o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:**

##### ***15.1 Komplaens yo'nalishida.***

Agentlik tizimi xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni olish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Agentlik tizimi xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;

Agentlik tizimi xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;

Agentlik rahbariyatiga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

Agentlik tizim tashkilotlarining Komplaens nazorati bo'limlari faoliyatini nazorat qilish;

o'z faoliyati doirasida Agentlik tizim tashkilotlariga yozma ko'rsatmalar, topshiriq xatlari va tavsiyalar berish;

Agentlikning korrupsiyaga oid majlislarida ishtirok etish;

tekshiruvlar o'tkazish, hujjatlarni talab qilish, xodimlardan yozma tushuntirishlar olish. xalqaro konferensiyalar, kongresslar, simpoziumlar va yig'ilishlar ishida, shuningdek axborot-tahliliy tadqiqotlar xalqaro loyihalarida qatnashish;

"Internet" va boshqa ahborot tarmoqlariga ulanish;

Komplaens nazorati bo'limi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

##### ***15.2 Ichki audit yo'nalishida.***

ichki audit faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni elektron, og'zaki va yozma shaklda so'rash va olish;

o'z vakolatlarini mustaqil ravishda, faqat qonunchilik hujjatlariga bo'ysungan holda amalga oshirish;

ichki audit ob'ekti mansabdor shaxsi hamda ichki audit tadbiri o'tkazilayotgan sohaga mas'ul bo'lgan shaxslardan yuzaga kelayotgan masalalar bo'yicha yozma yoki og'zaki tushuntirish olish;

ichki audit ob'ektlarining tegishli xodimlaridan ichki audit tadbirlari natijalari bo'yicha hujjatlarni imzolashni so'rash;

davlat moliyaviy nazorat organlari bilan ichki audit ob'ekti faoliyatiga doir ma'lumotlarni almashish;

ichki audit faoliyatini amalga oshirishda maxsus kasbiy bilimlarni talab etadigan masalalarni ko'rib chiqish uchun vazirlik va idoralarning tuzilmasidagi mutaxassislarni jalb etish;

ichki audit tadbirlarini o'tkazish maqsadida qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan hollarda, ichki audit ob'ekting barcha binolariga, shuningdek, elektron va qog'oz arxivlari hamda dasturiy majmualariga kirish va ulardan foydalanish;

vazirlik yoki idoralar tomonidan chaqiriladigan moliyaviy-iqtisodiy masalalarga tegishli yig'ilishlarda ishtirok etish;

jinoyat alomatlari aniqlangan hollarda, kassa va kassa binolari, omborlar, arxivlar va boshqa binolarni muhrlash, qalbakilashtirish, soxtalashtirish va boshqa suiste'molliklar alomatlari aniqlangan taqdirda, ichki audit ob'ektidan tegishli hujjatlarni olib qo'yish, shuningdek, vazirlik va idoralarning mansabdor shaxslaridan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari va hisob-kitoblar xatlovdan o'tkazilishini talab qilish;

ichki audit faoliyati natijalarini qayd etish uchun texnik vositalardan, shu jumladan, audio-foto va video qayd etish vositalaridan foydalanish;

ichki audit xizmatining xodimi bilan ichki audit tadbirlarini o'tkazishga yo'l qo'yilmaydigan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, ichki audit tadbirini o'tkazishni rad etish, to'xtatish;

vazirlik va idoralar tizimidagi moliyaviy-iqtisodiy masalalar bo'yicha tuzilmalar bilan hamkorlikda xodimlarning moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

ichki audit faoliyatiga taalluqli bo'lgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Agentlik bosh direktoriga kiritish.

Ichki audit xizmati qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

## **16. Komplaens va ichki audit bo'limining o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi majburiyatlarga ega:**

### ***16.1 Komplaens yo'nalishida.***

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, agentlikning ichki normativ hujjatlari va tartib qoidalariga rioya etish;

ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan yuklatilgan funksiyalarni zarur darajada va samarali bajarish;

qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish va o'z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

Agentlik tizimida jinoyat alomatlari, xususan korrupsiya holatlari aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan to'g'ridan-to'g'ri Agentlik bosh direktoriga, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob-axloq qoidalarining korrupsiyaga oid qismining buzilganligi fakti yuzasidan Agentlik bosh direktoriga ma'lumot kiritish;

Komplaens va ichki audit bo'limi xodimlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.



## **16.2 Ichki audit yo‘nalishida.**

ichki audit faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etish, o‘z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

ichki audit tadbirlarini xolis, sub‘ektiv fikrlarning ta‘sir qilishiga yo‘l qo‘ymagan holda amalga oshirish;

ichki audit xizmati xodimi tomonidan ichki audit xizmati obro‘sigga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan harakatlarni amalga oshirmasdan hamda odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda ichki audit tadbirlari o‘tkazilishini ta‘minlash;

aniqlangan budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlari, moliyaviy xato va kamchiliklar, maqsadsiz va noqonuniy xarajatlar, pul mablag‘lari va tovar-moddiy boyliklar kamomadi yuzasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Agentlik bosh direktoriga xabar berish;

jinoyat alomatlari, korrupsiyaga doir huquqbuzarliklar alomatlari (shu jumladan, ichki audit tadbirini amalga oshirgan shaxslar tomonidan) aniqlangan taqdirda, tegishli choralar ko‘rish (hujjatlashtirish, oldini olish choralari ko‘rish) va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga materiallarni yuborish yuzasidan Agentlik bosh direktorini xabardor qilish;

ichki audit faoliyati natijalariga doir hujjatlarda bayon etilgan ma‘lumotlarning ishonchliligi, asosliligi, xolisligi va to‘liqligini ta‘minlash;

ichki audit faoliyatini amalga oshirishda axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish;

ichki audit tadbirlari natijalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

olingan hujjatlarning but saqlanishi va qaytarilishini ta‘minlash;

muntazam ravishda ichki audit tadbiri natijalari yuzasidan Agentlik bosh direktoriga ma‘lumotlar kiritish;

«Davlat auditi» dasturiga ichki audit tadbirlari rejalari kiritilishini, barcha ichki audit tadbirlari ro‘yxatdan o‘tkazilishini va ularning natijalari, budjet xarajatlari va rivojlantirish dasturlarining maqsadli indikatorlari ijrosini baholash natijalari kiritilishini ta‘minlash;

budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlarini, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida ichki audit ob‘ektlariga bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar kiritish;

bir ish kuni ichida o‘zi aniqlagan va vakolati doirasida hal etish imkoni bo‘lmagan budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlari yuzasidan Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasini xabardor qilish;

xo‘jalik shartnomalarini bajarmaganlik va tegishli darajada bajarmaganlik uchun «Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo‘llash uchun Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasini xabardor qilish;

ichki audit tadbirida aniqlangan budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlarini bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarning bajarilishini monitoring qilib borish;

ichki audit tadbirlarini o‘tkazish vaqtida so‘ralgan hujjat va materiallarni tashkilot mansabdor shaxslari tomonidan taqdim etmaslik holatlari bo‘yicha dalolatnomalar tuzish;

ichki audit ob‘ekti mansabdor shaxslarining tushuntirishlar berish va ichki audit tadbiri natijalari bo‘yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlarni imzolashdan bosh tortganliklari to‘g‘risida dalolatnoma tuzish;

davlat, tijorat va xizmat sirlarini oshkor etmaslik;

belgilangan vazifa va funksiyalarini bajarishda korrupsiya holatlarining, shu jumladan, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish choralari ko‘rish;

ish yuritishni belgilangan tartibda olib borish, ichki audit tadbirlari bo‘yicha to‘plangan hujjatlarning nusxasini qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatda saqlash hamda hisobini yuritish;

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga o'z faoliyati yuzasidan so'ralgan boshqa ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha majburiyatlarga ega.

Ichki audit xizmati qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

**17.** Komplaens va ichki audit bo'limi xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarga mo'ljallangan o'quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglarda ishtirok etadi.

#### **5-bob. Bo'limning hisobdorligi**

**18.** Komplaens va ichki audit bo'limi agentlikning bevosita birinchi rahbariga hisobdordir.

#### **6-bob. Yakuniy qoidalar**

**19.** Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor deb topilgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.